



Sharipova Sarvinoz Sayid qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilar nutqini o'stirishda inshodan samarali foydalanish, uning o'quvchilar yozma nutqini rivojlantirishdagi rolini aniqlash haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *insho, adabiy mavzudagi insho, tafakkur, dunyoqarash, ijodiy fikr, erkin mavzudagi insho.*

Abstract: *The article discusses the effective use of essays in developing students' speech and determining their role in developing students' written speech.*

Keywords: *essay, essay on a library topic, thinking, outlook, creative thought, essay on a free topic.*

O'quvchini kasbga yo'naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o'qituvchisining burchi hisoblanadi. Yosh avlodni kasbga tayyorlovchi asosiy omil ona tili va adabiyot fanlaridagi matnlar, mashqlar va albatta, "Kim bo'lsam ekan?", "Men tanlagan kasb" kabi mavzulardagi dastlabki insholardir. "Insho" arabcha so'z bo'lib, "tashkil etish", "yaratish", "qurish", "barpo qilish", "ijod", "bayon", "tahrir" ma'nolarini anglatadi. Insho muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir.¹

Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikrmulohazalarini mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi.

Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorgarlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir.

Insho tez fursatda o'rganiladigan yoki o'zlashtiriladigan yozma ish turi emas. Insho yozish ko'nikmalariga qisqa muddatda ega bo'lish qiyin, albatta. Yaxshi, har tomonlama maqsadga muvofiq insho ko'p yillik faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, ko'p mutolaa qilish, imlo lug'atlari, izohli lug'atlardan boxabar bo'lish, atroflicha bilimga ega bo'lish talab darajasida yoziladigan insholarga zamin yaratadi.

Insho belgilangan maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va sinov insholari.

¹ Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyo'l poligraph service, 2008.



Ta'limiy insholar – sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Bunday insholarda biror yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchida fikrlash ko'nikmalari, qaror qabul qilish tezligi, voqelikka, shaxslarga, narsa-hodisaga baho berish malakasini shakllantirish maqsadi qo'yiladi. Ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin bunday insholar bilimni aniqlashga emas, bilim berishga yo'naltiriladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida nazorat ishi sifatida, davlat attestatsiyalarida, olimpiadalarda, ijtimoiy-gumanitar sohalarga doir tanlovlarda o'tkaziladi. Sinov insholari olingan bilim, ko'nikma va malakani baholashga xizmat qiladi. Insholar mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi;

1. Adabiy mavzudagi insho ta'lim dasturida qayd qilingan, dars jarayonida o'tilgan mavzular asosida yoziladigan, darslar va darsliklardagi ma'lumotlarga o'quvchining munosabati, shaxsiy fikrlari ifodalanadigan, ijodiy yondashuv asosidagi yozma ishdur. Adabiy mavzudagi inshoda muayyan yozuvchi, shoirning hayoti va ijodi, qahramonlar xarakteri, fe'l-atvori, faoliyati, taqdiri tahlil qilinadi, ijodkor faoliyati, asarlariga doir umumiy ma'lumotlar bayon etiladi, badiiy asar mazmuni, g'oyasi hamda undagi qahramonlar xarakterini, taqdirini yoritishda, tahlil qilishda o'quvchining mustaqil yondashuvi aks etadi. Ijodiy yondashuv, mustaqil fikr inshoning zarur shartlaridan biridir. Adabiy mavzudagi insholar matn asosidagi insholar deb ham yuritiladi.

2. Erkin mavzudagi insho adabiyot fani dasturida qayd etilmagan, ijtimoiy hayotning muhim masalalari, milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar, davr mafkurasi, yoshlar faoliyati bilan bog'liq axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda yoziladi.

O'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi, ijodkorlik qobiliyatini, histuyg'ularini namoyon qilishga qaratilgan insholar erkin mavzudagi insholardir.

Adabiy va erkin mavzudagi insholar bir-biridan, avvalo, asoslaniladigan manbasi bilan farq qiladi. Adabiy insholarning manbayi adabiy asarlar bo'lsa, erkin insholarning manbayi serqirra hayot, o'quvchilarning kuzatishlari va taassurotlari bo'lishi mumkin.

Pedagogik maqsadiga ko'ra insholar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1. Ta'limiy insholar.
2. Nazoratga qaratilgan insholar.
3. Ko'rik-tanlov insholari.

Ta'limiy insholar – insholarning asosiy qismini tashkil etadi. Bunday insholar, asosan, o'qitishga qaratilgan, o'rgatishni maqsad qilgan insholardir.

Nazoratga qaratilgan insholar – katta bo'limlar o'rganilgandan keyin yoki chorak va o'quv yili oxirida o'tkazilishi mumkin. Ular, asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.



Ko'rik-tanlov insholari – sinf yoki maktab doirasidagi ko'rik-tanlov, ma'lum bir nomdagi tanlov g'oliblarini aniqlash maqsadida, fan olimpiadalari bosqichlarida o'tkaziladi.²

Har uchala insho turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limiy insholar ayni vaqtda nazorat uchun xizmat qiladi. Har qanday nazorat qilishga qaratilgan insho ta'limiy maqsadni ko'zlaydi. Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Mavzu tanlash, asosiy g'oyani belgilash, material yig'ish, reja tuzish, shu asosda to'plangan materialni saralash, fikrni muayyan izchillikda bayon qilish, yozilgan matnni qayta ishlash va takomillashtirish kabi vazifalar barcha turdagi insholar uchun xosdir.

Insho mavzusini shakllantirish va tanlash.

Mavzu arabcha so'z bo'lib, "joylashtirilgan", "to'qib chiqarilgan" kabi ma'nolarni anglatadi. Insho mavzusi o'qituvchi tomonidan yoki muvofiqlashtirilgan kengash, o'quv-uslubiy birlashma tomonidan tanlangan va muhokama qilib tasdiqlangan bo'lishi kerak. Insho mavzusini tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Adabiy mavzudagi insholarda yozuvchi, shoir faoliyatining asosiy jihatlari qamrab olinadi. Erkin mavzular esa davrning muhim masalalariga bag'ishlangan, o'quvchilar qalbida ezgulik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

2. Mavzu har qanday subyektiv yondashuvdan xoli bo'lmog'i lozim.

3. Mavzu o'quvchilarning yoshiga, saviyasiga mos bo'lishi, ularning orzuumidlari, qiziqishlarini aks ettirishga xizmat qilishi lozim.

Insho mavzusini to'g'ri belgilashdan boshlanadi. To'g'ri tanlangan mavzu inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tanlangan ilk qadamdir. Mavzu tanlashga o'rgatish uchun berilgan matnni bir necha mustaqil qismga ajratish va ularga sarlavha topish, bir matnga bir necha sarlavha topish topshipiladi.

Inshoda yoritilgan fikrlar mavzuga mos kelishi va uning mazmunini to'la qamrab olishi lozim. O'quvchi mavzu talabini to'g'ri anglay olishi kerak.

Inshoda, albatta, mavzuga mos ravishda asos, ziddiyat, taqqoslash, misol, isbot bo'lishi talab etiladi.

Ko'p hollarda sinov uchun biz insho mavzularini turli variantlar asosida tashkil etamiz. Bu hol ko'chirmachilikni oldini oladi, albatta. Lekin o'quvchilar qobiliyati, iqtidorini teng baholashga to'sqinlik qiladi. Bir xil mavzuda insho yozdirish esa yozma ishlarni to'g'ri baholashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fuzailov S., Xudoyberganova M.. Ona tili (3-sinf uchun darslik). –Toshkent:
2. Muhitdinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.
3. Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ук,увчиларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография.-Т. 2016.- Б.11.

² G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT. Toshkent. "Turon Zamin ziyo" – 2017



4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. – Toshkent:
5. Odilov Y. Jamiyatda til sezgisi va so'z sevgisi barqarorlashmog'I lozim (Suhbat materiali) // Til va adabiyot ta'limi: 2017. 10-son. 7 – 10-b.b.
6. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyo'l poligraph service, 2008.
7. G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT. Toshkent. "Turon Zamin ziyo" – 2017